

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
DIN ISHLARI BO'YICHA QO'MITA

O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM
AKADEMIYASI

MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI
FAKULTETI

CHET TILLARI
KAFEDRASI

XORIJIY TILLARNI
O'QITISHDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH
METODOLOGIYASINING
AHAMIYATI

mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy
konferensiyasi
materiallari to'plami

16.05.2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

CHET TILLARI KAFEDRASI

**XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH
METODOLOGIYASINING AHAMIYATI**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

MATERIALLARI

16-may 2022-yil

Toshkent -2022

Til o'rganishda AKT ni qo'llashning yangi tendentsiyalari.....	78
Ikanova Lazokat	79
Shermatova Zuhra	81
Usmanova D	84
Taktasheva Dinara	86

Nofilologik yo'nalishlarda chet tilini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari..... 89

Razikova Dilfuza	90
Джалалова Сайёра, Бахрамов Абдураззок	97
Мирзаева Э	101
Низамова Умида	104
Турсунова И	107
Умаралиева Дилдора	111
Хамидова Нилуфар	113

Turli sohadagi fanlarni chet tilida o'qitish mahoratini oshirish..... 118

Khasanova Dilbar, Turaev Ozodbek	119
Khasanova Dilbar	123
Содиқова Бахтигул, Бобожонов Дилшод, Хайдаров Шерали	125

Til o'rgatishda virtual olam imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullari 129

Abdurakhmanova Umida	130
Azizov Solijon	132
Xodjakulova Nargiza	136


SKILLSUP.UZ PLATFORMASI YORDAMIDA O.GENRI VA A.QAHHOR HIKOYALARINI MUSTAQIL CHOG‘ISHTIRIB O‘RGANISHNI RIVOJLANTIRISH

Xodjakulova Nargiza
Katta o‘qituvchi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti

Ushbu maqola O.Genri va A.Qahhor asarlarini qiyosiy tahlil qilishda Blum taksonomiyasi mezonlaridan foydalanish afzalliklari hamda mustaqil ta’limni rivojlantirish uchun <https://skillsup.uz/> onlayn platformasida yaratilgan kurslarning qisqacha mazmunini yoritish uchun yozilgan.

Blum taksonomiyasi o‘zi nima?
O‘quvchi shaxsini mustaqil tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim bo‘lib, uzluksiz ta’limda ta’lim oluvchilarga belgilangan o‘quv dasturlari asosida bilim berish va o‘quv natijalarini baholashda Blum taksonomiyasi mezonlariga asoslanadi. Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan. Savol va to‘shiriqlar tizimi - bilish faoliyati darajalariga asoslangan o‘quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta’lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O‘quv maqsadlari taksonomiyasi-o‘quvchilar o‘zlashtirishining ma’lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obektlarni tabiiy o‘zaro bog‘liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi. Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

Blum taksonomiyasi- ta’lim maqsadlariga ko‘ra tashkil etilgan bilish faoliyatning uch sohasini qamrab oluvchi ierarxik tizimdir: kognitiv (bilish), affektiv (emotsional-qadriyatli) va psixomotor. Taksonomiyaning kognitiv faoliyatni qamrab oluvchi birinchi qismi 1956- yilda B. Blum rahbarligida ishlab chiqilgan. L. Anderson va D.Kratvol 2001-yilda taksonomiyaning qayta ishlab chiqdilar. Aniqlashtirilgan ushbu taksonomiyada avvalgi an’anaviy taksonomiyadagi xatolarni bartaraf etishga urinishdi.



Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, vaziyatni

baholash ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.



Bu masalada Benjamin Blumning bilish va emosional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasi o'quvchini fanga qiziqtirish, bilish faoliyatini jadallashtirish, intellektual salohiyatini aniqlash uchun eng maqbul yo'ldir. Blum tafakkurni bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga muvofiq ravishda oltita darajaga ajratdi. Blum taksonomiyasi bu- shunchaki tasniflash jadvali emas. Blumga ko'ra tafakkur bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi.. Jumladan bular:

Bilish (eslab qolish)- dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'l namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni yetkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, taniy olish, gapirib berish, takrorlashdan iboratdir.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi (so'zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi. Bu

tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlar oydinlashtirishdan iboratdir.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir model, formula, ko'rsatma asosida to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etishdan iboratdir.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash. Masalan: insho yozish, faoliyat rejasini ishlab chiqish. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, tuzish, loyihalash.

Baholash. Mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim-o'quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta'lim- tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta'lim texnologiyasida har bir o'quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O'quvchi-o'qituvchi hamda o'quvchi- o'quvchi hamkorligi ko'zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi. Bu texnologiyada kommunikativ metodlardan keng foydalaniladi. O'qituvchi tomonidan o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning quyidagi asosiy mezonlari mavjud:

1. Har bir o'quvchi uchun o'ziga xoslik qilib, uni hurmat qilib, uni tushunib, qabul qilib.
2. Ta'limning shunday muhitini yaratish kerakki, unda o'quvchi o'zini shaxs deb hissa, unga bo'lgan e'tiborni hissa.
3. Ta'limning maqsadiga o'zlashtirishda har bir o'quvchi uchun o'zlashtirish, tushunish o'zlashtirish, o'zini yomon tutishi sabablarini aniqlash va ularni boshqarish shaxsiga xos yechimlarini topish kerak.
4. Ta'limni o'zlashtirish maqsadiga erishish uchun, boshqarish o'zlashtirish maqsadiga erishish uchun, o'zlashtirish maqsadiga erishish uchun, o'zlashtirish maqsadiga erishish uchun, o'zlashtirish maqsadiga erishish uchun.
5. O'quvchi uchun hurmat va ishonchini qo'yish, o'ziga xoslik qilib, uni hurmat qilib, uni tushunib, qabul qilib.

Biz o'z tadqiqotimiz obyekti qilib universitetimizning TNA 1-kurslarining 3 ta guruhida 2-semestr davomida Roundtable discussion darslarimizda O.Genri va A.Qahhor asarlarini o'rganish jarayonida Blum taksonomiyasini tadbqiq qildik. Ikki buyuk yozuvchi haqida qisqa ma'lumot o'rnida shuni aytish mumkinki, O'Genri (1862-1910; AQSh). Asl nomi Uilyam Sidni Porter bo'lgan amerikalik yozuvchi. Aptekachi, sotuvchi, kitob bezakchisi, noshir va boshqa kasblarda ishlagan; asar, feletonlar yozishni mashq qilgan (1896 yilgacha), qamoqdaligida (1897—1901) yozgan hikoyalarni O'Genri taxallusi bilan yashirin chop ettirgan.

1904—10 yillarda 9 novellalar to'plami («Yonayotgan sham», «G'arb qalbi», «Yoqimtoy o'g'ri» va b.), vafotidan keyin yana 7 tasi bosilib chiqqan. «Qirollar va karam» (1904) romani sarguzasht-yumoristik novellalardan tashkil topgan.

O'Genri amerika hikoyachiligining o'ziga xos tipini yaratdi. Yumorning kuchliligi, kinoya, qiyos, parodiya kabi usullarning ko'p ishlatilganligi, eng muhimi, muallifning oddiy mehnatkash — «kichik inson»ga samimiy muhabbati, olijanoblik va sofdillikni madh etish va boshqa O'Genri hikoyalari olamshumul shuhrat keltirdi («To'rt million», 1909). Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. G'. G'ulom («Mening o'g'rigina bolam»), A. Qahhor («Anor») va boshqa o'zbek hikoyachiligini O'Genri ijodining ilg'or tomonlari bilan boyitdilar.

Shu o'rinda Abdulla Qahhor haqida ham ikk og'iz gapirib o'tsak, o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Abdulla Qahhor 1907 yili Qo'qon shahrida temirchi oilasida dunyoga keldi. O'rta ma'lumotni Qo'qonda olgan Abdulla 1925 yilda Toshkentga kelib, «Qizil O'zbekiston» gazetasida ishlaydi.

U O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida (1930) tahsil oldi. Yozuvchi «Sovet adabiyoti» jurnalida mas'ul kotib, O'zbekiston Davlat nashriyatida muharrir lavozimlarida ishladi (1954–1956). Abdulla Qahhorning ijodi 1924 yildan boshlangan. Dastlab «Mushtum» jurnalida, «Yangi Farg'ona» gazetasida uning hikoya, felyeton, xabarlar bosildi. Yozuvchining «Olam yasharadi» nomli birinchi hikoyalar to'plami 1935 yilda chop etilgan.

30-yillarda adibning uchta «Hikoyalar» to'plami (1935, 1938, 1939) kitobxonlar qo'liga tegdi. Bu davrda Abdulla Qahhor kichik hikoyalardan tashqari «Sarob» (1935) romanini yozdi. Urush yillarida yozuvchining bir qancha felyeton, ocherk va hikoyalari e'lon qilindi. «Asror bobo», «Dardaqdan chiqqan qahramon», «Kampirlar sim qoqdi», «Xotinlar», «Oltin yulduz» kabi o'nlab hikoya va qissalarida o'zbek jangchilarining mardligi, xalqimizning mehnatdagi jonbozliklari, yuksak vatanparvarligi ifodalangan.

Yozuvchining urushdan keyingi yillarda yaratgan “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951) romani jamoalashtirish mavzuiga bag‘ishlangan. U o‘zining “Shohi so‘zana” (1951), “Og‘riq tishlar” (1954), “Tobutdan tovush” (1962), “Ayajonlarim” (1967) komediyalari bilan o‘zbek dramaturgiyasi rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Ayniqsa, “Shohi so‘zana” pyesasida dramaturg qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzuini zo‘r mahorat bilan yoritdi. Pyesa respublikamiz va qator xorijiy mamlakatlar sahnalarida muvaffaqiyatli namoyish qilindi. Yozuvchining “Sinchalak” (1958), “O‘tmishdan ertaklar” (1965), “Muhabbat” (1968) qissalari o‘zbek nasrining taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. U “O‘tmishdan ertaklar” qissasi uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. O‘zbek kitobxonlari Abdulla Qahhor tarjimasida M. Gorkiyning “Mening dorilfununlarim”, N. V. Gogolning “Revizor”, L. N. Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani (I, II kitoblari) va boshqa bir qator asarlarni o‘z ona tillarida o‘qishga muvaffaq bo‘lganlar. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan. “O‘zbek adiblari” (S. Mirvaliyev, R. Shokirova. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 2016) kitobidan.

O.Генри ва А.Қахҳор асарларини ўрганишда Блум таксономиясидан фойдаланиш



XORIJY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI


Piramidada berilganidek adiblarning 12-15 tagacha qisqa hikoyalarni shu bosqichlarda berilgan xilma hil vazifalarni buni mustaqil ish qilib skillsup.uz onlayn platformasida qabul qilib oldik.

O.Генри ва А.Қахҳор асарлари

1. The Gift of the Magi	1. Анор
2. The Last leaf	2. Бемор
3. The Ransom of Red Chief	3. Минг бир жон
4. The Purple Dress	4. Нурли чуққилар
5. A Service of Love	5. Ўғри
6. After twenty years	6. Дахшат
7. The Furnished Room	7. Тобутдан товуш
8. The Cop and the Anthem	8. Думли одамлар
9. Between Rounds	9. Мухайё
10. Memoirs of a Yellow Dog	10. Бошсиз одам
11. Proof of the Pudding	11. Майиз емаган хотин
12. The Skylight Room	12. Ўжар
	13. Сеп
	14. Кампирлар сим қокти
	15. Жонфигон


Onlayn kurs platformalari - foydalanuvchilarga raqamli kurslarga kirishni ta'minlaydigan o'quv menejmenti tizimlari (LMS) turlari. Ushbu virtual kurslar ko'p jihatdan oflayn mashg'ulotlarga o'xshaydi: o'qituvchi video, rasm, matn, audio va PDF-fayllar orqali qiziqarli o'quv tajribasini taqdim etadi.

Talabalar LMS dasturi bilan birga ishlaydilar, qaydlar yozadilar, mashqlarni bajaradilar va bilimlarini sinab ko'rish uchun imtihonlarni yakunlaydilar.




(Sayt interfeysi)


SKILLS UP veb sayti (O'quv platformasi) hamda mobil qurilmalar uchun alohida huddi shu nomdagi mobil ilova ishlab chiqildi. Ushbu veb saytning asosiy maqsadi talabalarga, ingliz tilini mustaqil o'rganuvchilar, ayniqsa, IELTS va CEFR kabi xalqaro imtixoniga tayyorlanayotgan yoshlarga o'z bilimlarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishda yordam berish, o'z bilim darajalarini aniqlab olishlariga ko'maklashish bilan bir qatorda ingliz tilini erkin o'rganuvchilar uchun ham turli qiziqarli bilimlarni ajoyib tarzda yetkazish, ularning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlarini oshirishdir.





(ro'yxatdan o'tish)



Ushbu veb sayt ko'rinishi hamda tuzulishi jihatidan (LMS/moodle) qulay va oson elektron manba hisoblanadi va onlayn tartibda ishlaydi. Veb saytdan foydalanish uchun elektron po'chta orqali osongina ro'yxatdan o'tiladi va kirish testi ishlanadi. Bu ilk sinov foydalanuvchining bilim darajasini aniqlab keyinchalik veb saytdan foydalanishni ta'minlaydi.



(Comparative Literature kursining interfeysi va mavzular)



(Comparative Literature kursining foydalanuvchilari)

